

AXLOQIY PRINSIPLAR VA SUN'IY INTELEKT: INSONIYATNING YANGI MUAMMOLARI

Ergashev Ozodbek Baxodurovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistent o'qituvchisi

+998770736309

e-mail: obek2155@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqola sun'iy intellekt (SI) texnologiyasining tez rivojlanishi va uning insoniyat hayotiga ta'siri haqida so'z yuritadi. Sun'iy intellektning axloqiy va ijtimoiy jihatlarini, ayniqsa, uning qaror qabul qilish jarayonlarida yuzaga keladigan yangi axloqiy muammolarni tahlil etadi. Maqolada sun'iy intellekt tizimlarining insoniyatning kundalik hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishi, bu texnologiyaning adolat, tenglik, shaxsiy huquqlar va xavfsizlik kabi asosiy axloqiy prinsiplar bilan qanday bog'lanishi muhokama qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellektning kelajakdagi rivojlanishi va uning axloqiy mas'uliyatini ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilishi kerakligi haqida fikrlar bildiriladi. Maqola o'zida nafaqat texnologik, balki etik nuqtai nazardan ham zamonaviy masalalarni o'z ichiga oladi va bu sohada mavjud bo'lgan dilemmalarni muhokama qiladi.

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, axloqiy prinsiplar, etika, texnologik rivojlanish, axloqiy mas'uliyat, inson huquqlari, qaror qabul qilish, etik dilemmalar, algoritmik adolat, insoniyat va texnologiya.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается стремительное развитие технологий искусственного интеллекта (ИИ) и их влияние на жизнь человечества. Особое внимание уделяется этическим и социальным аспектам ИИ, в частности, возникающим новым моральным дилеммам в процессе принятия решений. В статье анализируется, как ИИ влияет на повседневную жизнь людей и как эта технология соотносится с такими основными моральными принципами, как справедливость, равенство, права личности и безопасность. Также рассматриваются перспективы развития ИИ и меры, необходимые для обеспечения его этической ответственности. Статья охватывает не только технологические, но и этические вопросы, затрагивая современные вызовы и дилеммы в данной сфере.

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, моральные принципы, этика, технологическое развитие, этическая ответственность, права человека,*

принятие решений, этические дилеммы, алгоритмическая справедливость, человечество и технологии.

ABSTRACT

The article discusses the rapid development of artificial intelligence (AI) technologies and their impact on human life. It focuses on the ethical and social aspects of AI, especially the emerging moral dilemmas in decision-making processes. The article analyzes how AI systems affect daily human life and how this technology aligns with key moral principles such as justice, equality, individual rights, and safety. It also considers the future development of AI and the necessary measures to ensure its ethical responsibility. The article addresses not only technological but also ethical perspectives, exploring current challenges and dilemmas in this field.

Keywords: *Artificial intelligence, moral principles, ethics, technological development, ethical responsibility, human rights, decision-making, ethical dilemmas, algorithmic justice, humanity and technology.*

KIRISH

Sun'iy intellekt hech shubhasiz insoniyat bugungi kunda erishgan ilm-fanning eng katta yutuqlardan biridir. Har bir texnologik kashfiyot singari sun'iy intellekt ham insoniyatning turmush tarzini yanada yaxshilash, unga turli qulayliklar taqdim etish maqsadida yaratilgan. Albatta sun'iy intellekt bu jihatdan o'z vazifasini bajarmoqda. Ammo bilan birga ushbu texnologiyalar odamlarning ish faoliyatini osonlashtirayotgan bo'lsa-da, ularning axloqiy va ijtimoiy oqibatlar ham muhim savollarni keltirib chiqarmoqda. Bir qancha olimlar bu masalalar haqida o'z ilmoiy ishlarida to'xtalib o'tishmoqda. Masalan Oksford universiteti professori Luciano Floridi ham o'zining bir qancha ilmiy ishlarida sun'iy intellekt va axloq masalalarini tahlil qilmoqda.

Sun'iy intellektning keltirib chiqaradigan axloqiy muammolaridan biri bu jamiyatdagi mas'uliyat yoki javobgarlikdir. Masalan jamiyatda biror bir kasb egasi, biror olim xato qilsa uning xatosi keltirib chiqargan oqibatga ko'ra unga huquqiy jazo berilishi mumkin. Lekin sun'iy intellekt xato qilsa uning xatosi uchun kim javobgarlikka tortiladi degan savol mavjud. Masalan sun'iy intellekt boshqarayotgan mashina avtohalokatga uchradi va buning oqibatida kimdir zarar ko'rdi. Xo'sh, paydo bo'lgan zararni kim qoplaydi? Mashinaning egasimi? Lekin u sun'iy intellekt mashinasini to'g'ri boshqarishi uchun pul to'lagan va tabiiyki dasturchilarni aybdor deb hisoblaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sun'iy intellekt tizimlari kundalik hayotda muhim qarorlar qabul qilishga yaqinlashgan sayin, ularning axloqiy tanlovlari global miqyosda muhokama qilinmoqda. Bu borada 2016–2018 yillarda MIT Media Lab tomonidan olib borilgan “Moral Machine” loyihasi sun'iy intellekt axloqiy jihatlariga oid eng yirik eksperimentlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy savoli quyidagicha edi: “Agar avtonom (haydovchisiz) avtomobil muqarrar avariya uchrasa, kimni qutqarishi kerak — yo‘lovchimi yoki piyodami?”

Loyihada 200 dan ortiq mamlakatdan 2 milliondan ortiq ishtirokchi qatnashgan. Ularga turli axloqiy dilemmalar (masalan, keksa odammi yoki yosh bola, boymi yoki kambag'al, jinoyatchimi yoki shifokormi) asosida qarorlar taqdim etildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra G'arb davlatlarida (masalan, AQSH, Kanada) yoshlar foydasiga qarorlar ko'p qabul qilingan bo'lsa, Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida keksa insonlar ustuvor deb topilgan.

Ijtimoiy stereotiplarga ko'ra ishtirokchilarning ko'pchiligi ijtimoiy jihatdan “foydaliroq” deb hisoblangan (masalan, shifokor, homilador ayol) odamlarni qutqarishni tanlagan.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, odamlar sun'iy intellektdan adolat kutadi, biroq o'zlari ba'zida qaror qabul qilishda tenglik tamoyillariga zid harakat qilishadi.

Bu tadqiqot sun'iy intellekt tizimlari uchun universal axloqiy algoritm yaratish qanchalik murakkab ekanini ko'rsatdi. Chunki axloqiy qadriyatlar jamiyatdan jamiyatga farq qiladi, ba'zida bir-biriga zid bo'ladi. Shuningdek, bu tajriba sun'iy intellekt qarorlari orqasida insoniy tanlovlar va madaniy me'yorlar turganini eslatadi.

Yana bir muammo bu sun'iy intellekt yordamida insonlar ongini o'qish imkoniyatining paydo bo'lishidir. Bundan kimlardir o'z manfaati yo'lida foydalanadigan bo'lsa buning oqibatida misli ko'rilmagan muammolar kelib chiqish xavfi mavjud. Yaqin kelajakda sun'iy intellekt shunday imkoniyatlarga ega bo'lishi haqida ham qarashlar mavjud. Masalan Matthew Hutson o'z maqolasida sun'iy intellekt inson ongini o'qiydigan mashinalar sari bir qadam qo'yganini aytib o'tadi.¹ Uning aytishicha tadqiqotchilar “deep learning” deb atalgan o'rganishlarida inson miyasidagi neyronlarga qarab u qanday tasvirni ko'rganligi haqida ma'lumot olishgan. Kelajakda bu kabi tadqiqotlar rivojlanib inson ongiga ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham vujudga kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida axloqiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yana bir Oksford universiteti professori Nik Bostrom (Nick Bostrom) kelajakda sun'iy intellektning insondan ustun bo'lishi xavfi mavjudligini aytadi. Bunda asosiy

¹ <https://www.science.org/content/article/artificial-intelligence-learning-read-your-mind-and-display-what-it-sees>

muammo shundaki buning oqibatida inson irodasi pasayishi yoki umuman yo‘qolib ketishi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, bu masala insonning mavjudlikdagi o‘rni (ontologik maqomi)ga tegishli. Inson hozirgacha o‘zini aqlan eng yuqori mavjudot sifatida tasavvur qilib kelgan. Ammo agar sun‘iy intellekt bizdan aqlan ustun bo‘lsa, inson endi markaziy sub‘yekt emas, balki boshqarilishi mumkin bo‘lgan ob‘yektga aylanadi. Bu esa antropotsentrizm g‘oyasini rad etishga olib keladi.

Bundan tashqari, iroda erkinligi masalasi muhim o‘rin tutadi. Immanuel Kant ta‘kidlaganidek, inson axloqiy mavjudot sifatida qaror qabul qilishda erkin bo‘lishi kerak. Agar sun‘iy intellekt inson harakatlarini optimallashtirish yoki tartibga solish bahonasida uning tanlovlarini cheklasa, bu erkinlikning yo‘qolishiga olib keladi. Erkinlik bo‘lmagan jamiyatda esa axloqiy javobgarlik va subyektivlik zaiflashadi.

Axloqiy jihatdan, sun‘iy intellekt tomonidan inson qarorlariga aralashish mas‘uliyat muammosini yuzaga keltiradi. Sun‘iy intellekt axloqiy sub‘yekt sifatida shakllanmagan — u faqat algoritmik ko‘rsatmalarga amal qiladi. Shunday ekan, noto‘g‘ri qaror yoki oqibatlar uchun kim javobgar bo‘ladi? — bu savol hali ochiq.

Shuningdek, inson huquqlari va shaxsiy daxlsizlik tamoyillari ham xavf ostida qoladi. Agar sun‘iy intellekt tizimlari insonning ongini tahlil qila olsa, uning fikrlari va xatti-harakatlarini oldindan belgilab bera olsa, bu holat axloqiy nazorat o‘rniga texnologik manipulyatsiyaga aylanib qolishi mumkin.

Zamonaviy sun‘iy intellekt, ayniqsa chuqur o‘rganishga asoslangan tizimlar, “qora quti” (black box) deb ataladigan xususiyatga ega: ya‘ni tizim qarorining qanday shakllangani ko‘p hollarda inson uchun tushunarsiz bo‘lib qoladi. Bu esa axloqiy mas‘uliyatni aniq belgilashni imkonsiz qiladi. Sud qarorlariga, bank kreditlariga yoki tibbiy tashxislarga AI aralashayotgan bir paytda, qarorning ochiqligi va asoslanishi axloqiy jihatdan muhim tamoyildir.

Sun‘iy intellekt tizimlari tarixiy ma‘lumotlarga asoslangan holda o‘rganadi. Agar bu ma‘lumotlarda ilgari mavjud bo‘lgan gender, irqiy yoki sinfiy kamsitishlar mavjud bo‘lsa, sun‘iy intellekt ularni takrorlaydi yoki hatto kuchaytiradi. Masalan, AQSHda ba‘zi yirik kompaniyalarning yollash tizimlarida sun‘iy intellekt ayollarni muhandislik lavozimlaridan chetlashtirgan holatlar kuzatilgan. Bu “algoritmik adolatsizlik” jamiyatda mavjud muammolarni avtomatlashtirib, ularni axloqiy darajada chuqurlashtiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak sun‘iy intellekt insoniyat tarixidagi eng muhim ilmiy yutuqlardan biri sifatida jamiyatimizning deyarli barcha jabhalariga kirib bormoqda. Texnologik qulayliklar, samaradorlik va innovatsion yondashuvlar orqali

u kundalik hayotimizni soddalashtirmoqda. Ammo bu jarayon bir qator murakkab axloqiy, huquqiy va falsafiy savollarni ham kun tartibiga olib chiqmoqda.

Maqolada ko'rsatilganidek, sun'iy intellekt tizimlarining qaror qabul qilishdagi mustaqilligi, mas'uliyat va javobgarlik muammolari, madaniy kontekstlarga bog'liq axloqiy mezonlarning xilma-xilligi — bularning barchasi universal axloqiy algoritmlar yaratish imkonini cheklaydi. "Moral Machine" tajribasi bu muammolarning naqadar murakkab va madaniy jihatdan farqli ekanini ko'rsatdi. Boshqa bir misolda, inson ongining sun'iy intellekt orqali tahlil qilinishi, shaxsiy daxlsizlik va iroda erkinligi masalalarini xavf ostiga qo'yimoqda.

Falsafiy nuqtai nazardan, insonning mavjudlikdagi o'rniga sun'iy intellektning ta'siri masalasi juda muhim. Antropotsentrizmga putur yetishi, insonni ob'yektga aylanishi xavfi, erkinlik va axloqiy subyektivlikning so'nishi — bular bugungi texnologik taraqqiyot fonida jiddiy falsafiy muammolarni yuzaga keltiradi.

Demak, sun'iy intellektni axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirish, uni inson qadriyatlariga zid bo'lmagan yo'nalishda rivojlantirish global darajadagi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu borada olimlar, siyosatchilar, dasturchilar va keng jamoatchilik o'zaro hamkorlikda harakat qilishi, sun'iy intellekt taraqqiyotiga yo'l-yo'riq berishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Awad E., Dsouza S., Kim R., Schulz J., Henrich J., Shariff A., Bonnefon J.-F., Rahwan I. The Moral Machine experiment // *Nature*. — 2018. — Vol. 563, Issue 7729. — P. 59–64.
2. Бостром Н. Сверхинтеллект: пути, опасности, стратегии. — М.: АСТ, 2016.—480с.
3. Jobin A., Ienca M., Vayena E. The global landscape of AI ethics guidelines // *Nature Machine Intelligence*. — 2019. — Vol. 1, Issue 9. — P. 389–399.
4. High-Level Expert Group on AI. Ethics Guidelines for Trustworthy AI. — European Commission, 2019. — 41 p.
5. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. — Paris : UNESCO, 2021. — 46 p.
6. Mittelstadt B.D., Allo P., Taddeo M., Wachter S., Floridi L. The ethics of algorithms: Mapping the debate // *Big Data & Society*. — 2016. — Vol. 3(2).
7. Русакович А. В. Этические вызовы искусственного интеллекта // *Философия и общество*. — 2020. — № 4 (129). — С. 63–78.